

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK- TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**"NEFT-GAZKIMYO SANOATI TEXNOLOGIYASI" fakulteti**

**"NEFT-GAZKIMYO SANOATI TEXNOLOGIYASI" kafedrasи**

Himoyaga ruxsat berildi

**«NGKST» fakulteti dekani**  
**\_\_\_\_\_ dots. Ataullayev Sh.N.**  
**«\_\_» 2018 yil**  
**Ro'yxatga olish raqami № \_\_\_\_**

**«NGKST» kafedrasи mudiri**  
**\_\_\_\_\_ dots. Bozorov G.R.**  
**«\_\_» 2018 yil**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Yillik quvvati 450 ming tonna bo'lgan neft va gaz kondensati aralashmasini fraktsiyalarga ajratish qurilmasi tahlili va havoli sovutgichni hisoblash.**

**BAJARDI:**

**6-14 NGKST guruhi talabasi  
Ruzimuratov R. Sh.**

**RAHBAR:**

**Sharipov Q.Q.**

Himoya kuni \_\_\_\_\_  
DAK bayoni \_\_\_\_\_  
DAK bahosi \_\_\_\_\_  
DAK kotibi \_\_\_\_\_

Buxoro – 2018 yil

# O'ZBEKITSON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM

VAZIRLIGI

## BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi” kafedrasи

### BITIRUV MALAKAVIY ISHI UCHUN TOPSHIRIQ

6-14 NGKST guruhi tolibi: Ruzimuratov Rustam Sharifjonovich

**BMI mavzusi:** « *Yillik quvvati 450 ming tonna bo'lgan neft va gaz kondensati aralashmasini fraktsiyalarga ajratish qurilmasi tahlili va havoli sovutgichni hisoblash* ».

#### KIRISH

#### 1.TEXNIK QISM

- 1.1 Neft yoqilg'ilari turlari va ularning harakteristikalari
- 1.2 Tabiiy gazlar tarkibi va uni qayta ishlashga tayyorlash.
- 1.3 Benzin komponentlari xossasi.
- 1.4 Neftni qayta ishlash kimyoviy texnologiyasi.

#### 2.TEXNOLOGIK QISMI

- 2.1 Gaz va gazokondensatlar tavsifi.
- 2.2 Havoli sovutish sistemalarining tuzilishi.
- 2.3 Neftni AT da haydash texnologik tizim tavsifi
- 2.4 Neft mahsulotlarining frakstion tarkibini laboratoriya qurilmasida aniqlash

#### 3. HISOBBLASH QISMI.

- 3.1 Havoli sovutkichni tanlash va hisoblash.

#### 4. HAYOT FAOLIYATI XAVSIZLIGI QISMI

- 4.1 Texnologik jarayonni xavfsiz olib borishning asosiy qoidalari
- 4.2 Jarayonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan xavfsizlik choralar
- 4.3. Yong'inni o'chirish usullari va zarur vositalari
- 4.4. Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining ta'siridan ishchi-xodimlarni himoyalash vositalari

#### 5. GRAFIK QISMI

- 5.1 Neftni atmosferali haydash qurilmasi texnologik sxemasi
  - 5.2 Havoli sovutgichning umumiy ko'rinishi
  - 5.3 Havoli sovutgich detallari
- 5.4 Neft mahsulotlarining frakstion tarkibini laboratoriya qurilmasi sxemasi.

“NGKST” fakulteti dekani:

dots. Ataullayev Sh.N.

“NGKST” kafedrasи mudiri:

dots. Bozorov G'.R.

Rahbar:

Sharipov Q.Q.

Bitiruvchi:

Ruzimuratov R. Sh.

## KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston neft-gaz sanoati nafaqat er osti boyliklarini qazib olish, balki xomashyoni qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqaruvchi majmualar tizimiga aylandi. Bu tarmoq yuksak rivojlangan sanoat ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha qator yirik korxonalarini birlashtirdi.

Hozirgi bosqichda tarmoqning asosiy iqtisodiy yo'nalishlaridan biri uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlash va undan qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, xorijiy investisiyalarni jalb etish hamda eksport geografiyasini kengaytirish hisoblanadi. Bu boradagi loyihalarni amalga oshirish uchun mamlakatimizga neft va gazni qazib chiqarishda etakchi qator yirik chet el kompaniyalari jalb etilmoqda. Rossiyaning "Lukoyl" neft kompaniyasi bilan hamkorlikda "Qandim-Xauzak-Shodi-Ko'ng'iroq" mahsulot taqsimoti bitimi doirasida bunyod etilgan Qandim gazni qayta ishlash majmuasi ulardan biridir.

Korxona foydalanishga topshirilgach, 2 mingdan ortiq doimiy ish o'rni yaratildi. Qandim gazzkondensat konlari guruhi negizida bunyod etilgan mazkur sanoat korxonasi O'zbekiston – Rossiya hamkorligining yuksak namunasidir. Uning ishlab chiqarish quvvati yiliga 8,1 milliard kub metr tabiiy gazni qayta ishlashga mo'ljallangan. Majmua to'la quvvat bilan ishlaganda 212 ming tonna sof oltingugurt, 134 ming tonna barqarorlashtirilgan gaz kondensati olinadi, tozalangan tabiiy gaz eksportga yo'naltiriladi.

Davlatimiz rahbari Harakatlar strategiyasiga muvofiq amalga oshirilayotgan ishlar sanoatning etakchi yo'nalishlarini izchil rivojlantirishga xizmat qilayotganini ta'kidladi. Yoqilg'i-energetika tarmog'iga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar jalb etilayotgani, Qandim gazni qayta ishlash majmuasi O'zbekiston bilan Rossiya hamkorligi barcha sohada jadal rivojlanib borayotganining yorqin namunasi ekanini qayd etdi. Yangi korxona viloyat iqtisodiyoti uchun o'ziga xos lokomotiv bo'libgina qolmasdan, butun mamlakatimizni uglevodorod mahsulotlari bilan ta'minlash tizimini tubdan yaxshilash va eksport hajmini oshirish imkonini beradi. Davlatimiz rahbarining 2016 yil 28 sentyabrdagi «2016 – 2020 yillarda

uglevodorod xom ashvosini chuqur qayta ishslash negizida eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida bu boradagi ishlar izchil rivojlantiriladi.

Umumiy qiymati 3 milliard dollardan ziyod ushbu ulkan loyihada Janubiy Koreyaning "Xyunday injenering" kompaniyasi asosiy quruvchi-pudratchilardan bo'ldi. Hech shubhasiz, bu yangi sanoat kompleksi nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasidagi noyob sanoat ob'ektlaridan biriga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoev alohida ta'kidlaganidek, O'zbekiston faqat tabiiy xomashyosi bilan cheklanmay, uni chuqur qayta ishslashda Qandim majmuasi katta imkoniyat yaratadi.

Qandim gazni qayta ishslash majmuasining 19 aprel 2018 yilda ishga tushirilishi O'zbekistonda gaz konlarini o'zlashtirishda yangi bosqichni boshlab berdi. O'zbekiston iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan neft-gaz sohasi rivoji mamlakatimiz iqtisodiy yuksalishi va xalqimiz farovonligi yanada oshishida muhim omil bo'ladi.

Energetika sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarga muvofiq, Jizzax viloyatida zamonaviy neftni qayta ishslash kompleksi barpo etiladi. Qiymati 2,2 milliard dollar bo'lgan loyiha yiliga 5 million tonna neft xomashyosini qayta ishslash imkonini beradi. Rejaga ko'ra, yangi qurilayotgan zavod har yili 3,7 million tonna motor moyi, 700 ming tonna aviastiya kerosini va 300 ming tonna qushimcha neft mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi. Zavod qurib bitkazilishi 2022 yilga rejalashtirilgan. Umumiy qiymati 2,2 milliard dollar bo'lgan neftni qayta ishslash zavodi yiliga 5 million tonna neftni qayta ishslash quvvatiga ega bo'ladi. Yangi zavodga xom ashvo Rossiyanadan, Qozog'iston orqali olib kelinadi.

O'zbekiston prezidentining Qozog'iston va Rossiyaga davlat tashriflarida olib borilgan samarali muzokaralar natijasida majmua uchun xomashyo yaqinda barpo etiladigan neft quvuri orqali etkazib kelinadi. Bu energiya resurslarini etkazish harajatlarini keskin kamaytiradi va loyihaning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Majmuuning geografik joylashuvi ishlab chiqarilgan mahsulotni

mamlakatning barcha hududlariga va eksportga minimal harajatlar bilan etkazish imkoniyatini ta'minlaydi.

Zavodda uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlash bo'yicha eng zamonaviy, ekologik va energetik jihatdan samarador texnologiyalar o'rnatiladi. Ular asosida jahon standartlariga javob beradigan motor va aviastiya yoqilg'isi, benzol, mazut, bitum va boshqa neft mahsulotlari ishlab chiqariladi. Majmuuning ishga tushirilishi 2 mingdan ziyod, iqtisodiyotga aloqador va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida qo'shimcha 14 mingdan ortiq kishining bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish imkonini beradigan muhim uglevodorodli salohiyatga ega. Hisob-kitoblarga ko'ra, Markaziy Osiyodagi barcha mineral zaxiralarning uchdan bir qismi O'zbekistonda joylashgan. Mamlakatimiz gazni qazib chiqarish bo'yicha dunyoning ilg'or yigirmataligiga kiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotining lokomotivlaridan biri bo'lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodida kelgusi yili qo'shimcha ravishda 6 milliard kub metr tabiiy gazni oltingugurtdan tozalaydigan bloklar to'liq faoliyat boshlaydi.

bitumlari, 7. va boshka neft mahsulotlari.

2. Yoqilg'i. 1. Karbyurator yoqilg'isi (avia-avtomobil benzilari, traktor yoqilg'isi). 2. Reaktiv, 3. Dizel, 4. Gazoturbinalar. 5. Kotel (kozon) yoqilg'isi.

Aviastiya va avtomobil benzinlari

Tovar benzinni benzin frakstiyalarini aralashtirish (kompaundlash) yuli bilan tayyorlanadi. Benzin frakstiyalari har xil usullar bilan olingan bulishi mumkin. Komponentlarni aralashtirish har bir komponentni xususiyatidan tugri foydalanib,

kerakli sifatga ega bulgan motor yoqilg'isini tayyorlashga va benzin resurslaridan tugri foydalanishga yordam beradi.

### Avtomobil benzinlari

Avtomobil benzinlarini tayyorlashda ishlatiladigan komponentlarni mikdori va sifati bir-biridan katta farqkiladi.yu hattoki, bir zavodning uzida har-xil vaqtida tayyorlangan bir markadagi benzinlar ham komponent sostavi buyicha fark kilishi mumkin, chunki zavodning programmasi uzagrib kolishi yoki ta'mirlash ishlari bajarilishi mumkin. Hozirgi vaqtida Respublikamiz NPZ larida A-66, A-72, A-76, AI-93 va AI-98 markadagi benzinlar ishlab chikarilmokda. Bundan tashkari maxsus texnik shart buyicha oz mikdorda «Ekstra» benzini ishlab chiqarilmokda, bu benzinni AI-95 ham deyiladi. Benzin markalarini kupligi ekspluatasiyadagi avtomobil dvigatellarini talablarini turliligi bilan isbotlanadi.

Avia benzinlar – xozirgi vaqtida juda oz mikdorda ishlab chikariladi, chunki porshenli dvigatellar kam ishlatilmokda. Benzin B-70 platforming benzinlarni aromatik uglevodorodlari ajratib olingandan sung, unga tugri xaydab olingan benzin frakstiyasi kushiladi. TES ning mikdori aviabenzinlarda avtobenzinlarga nisbatan kup buladi. Tuyingan parlarining bosimi 29,3 KPa dan kam emas va 47,9 KPa dan kup emas (par probkasi xosil bulmasligi uchun).

### **1.2 Tabiiy gazlar tarkibi va uni qayta ishlashga tayyorlash.**

Mamlakatimizni er ostidan olinayotkan gazlarning 70 % ga yaqini sanoatda yonilg'i va hom ashyo sifatida ishlatiladi, 20 % ga yaqini elektroenergiyani ishlab chiqarish uchun yonilg'i sifatida foydalaniladi.

Hozirgi vaqtida tabiiy gazlar er ostidan olingandan so'ng konlarda qayta ishlanib, ularni tovar gaz holiga keltiriladi, shu bilan birga, undan etan, propan, butan, izobutan gazlari, oltingugurt, merkaptanlar, gazokondensat, hatto motor yonilg'ilarini ishlab chiqariladi.

Er ostidan gaz bosim ostida chiqadi va tashqariga chiqqandan keyin bosim pasayadi. Shuning natijasida gazning tarkibidagi suyuq holdagi qismi kondensastiyaga uchrab ajralib chiqadi, buni gaz kondensati deymiz. Kondensatdan tozalangan gazni tarkibida yana birmuncha zaharli chiqindilar bor.

Tabiiy gaz  $\text{SnN}_{2n+2}$  to'yingan uglevodorodlardan iborat. Kimyoviy tarkibi: asosan metan gazi 96-99 % ni tashkil etadi. Oz miqdorda  $\text{S}_2$ - $\text{S}_4$  gazlari bor. Shular bilan birga n-pentan, izo-pentan, geksan, geptan va boshqa og'ir uglevodorodlar ham qo'shilib chiqadi. Bulardan tashqari azot,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{N}_2\text{S}$ , inert gazlar (Ar, Ne, Kr, Xe, Ne) ham mavjuddir.

Azot va  $\text{SO}_2$  hamma gazlarda 10 %, ba'zan undan ortiq hajmda uchraydi. Bular keraksiz gazlardir.  $\text{N}_2\text{S}$  gazi esa zaharli, suv bilan qo'shilib metall buyumlarni korroziyaga olib keladi. Shuning uchun 100  $\text{m}^3$  gazda 2 g  $\text{H}_2\text{S}$  qolguncha tozalanadi.

Geliy esa 1 % dan kamroq.

Tabiiy gaz odatda uzoq masofalarga trubalar orqali uzatiladi. Gaz yo'lida iqlim sharoiti har xil bo'lganligi sababli gazni tarkibidagi suvdan tozalash ahamiyatga ega.

Gazni tarkibidagi namlik, suyuq uglevodorodlar, zaharli va boshqa chiqindilar gaz trubalarini ish samaradorligini kamaytiradi, korroziyani kuchaytiradi, kompressorlarni istemol qiladigan energiyasini ko'paytiradi, kuzatish va tekshirish moslamalarini trubkalarida tiqilib qoladi. Bular texnologiya qurilmalarini ishini murakkablashtiradi, avariya holatiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tovar gaziga quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1) Bizni sharoitimizda qish davrida (X-IV) - 6°С, yoz davrida (V-IX) 0°С dan yuqori haroratda gazni tarkibidan suv kondensati hosil bo'lishi mumkin emas.
- 2) Mexanik chiqindilar 100  $\text{m}^3$  gazni tarkibida 0,1 g dan oshmasligi shart.
- 3)  $\text{N}_2$  gazini miqdori 100  $\text{m}^3$  gazni tarkibida 2 g dan oshmasligi shart.
- 4) Kislorodni miqdori 1 % dan oshmasligi shart.
- 5) Qish va yoz fasllarida ± 0°С da gazlarning tarkibidagi suyuq SN larni ajralib chiqmasligi.

Tovar gazni sifatini uzlusiz ravishda avtomatlashtirilgan moslamalar yordamida tekshirib boriladi.

Gaz va suyuqlik aralashmasini ajratishni fizikaviy asoslari

Tabiiy gaz maxsus kurilmalarda tindirilib uni gaz kondensati va suvdan ajratilgandan keyin ham gazning hajmida suyuqlikning juda mayda zarrachalari qoladi. Zarrachalarning kattaligi 0,1-20 mkm dan to 1000 mkm ga teng. Gazni trubalar moslamalar ichida harakat qilganda suyuqlik zarrachalari bir-biri bilan birlashib zarracha kattalashishi mumkin va aksincha gaz yuqori tezlik bilan harakat qilsa zarrachalarning hajmi maydalanim ketishi mumkin.

Tovar gazning  $1 \text{ m}^3$  da 300-350 mg suyuqlik qolishi mumkin. Qolgan qismini maxsus separatorlarda ajratib olinadi. Separatorlar ishslash uslubiga qarab bir necha xil bo'ladi:

- 1) Suyuqlik zarrachalari o'z og'irligi tufayli ajraladi-gravitastionnyi.
- 2) Zarrachalar inerstiya kuchi yordamida ajraladi-inerstionnyi.
- 3) Zarrachalar markazdan uzoqlashuvchi kuch hisobiga ajraladi-stentrobejnyi.
- 4) Filtrlovchi - suzuvchi.


### **Gazlarni $\text{N}_2\text{S}$ va $\text{SO}_2$ dan tozalash usullari**

$\text{N}_2\text{S}$  va  $\text{SO}_2$  gazlari ko'pincha er ostidan olinayotkan tabiiy gazlarni tarkibida uchraydi. Ularni miqdori har xil: bir prostendan kam, ba'zan bir necha prostentgacha etadi.  $\text{SO}_2$  gazi aytarlik zararsiz,  $\text{N}_2\text{S}$  esa oz miqdori zararlidir.

Gazlarni  $\text{N}_2\text{S}$  va  $\text{SO}_2$  dan tozalashni bir necha xil usullari bor. Ular asosan ikki guruxga bo'linadi: absorbstiya va desorbstiya usullari. Absorbstiya usuli o'z navbatida ikkiga bo'linadi: kimiyoviy (xemosorbstiya) va fizikaviy.

Xemosorbstiya (kimiyoviy) usulda gaz xemosorbent bilan reakstiyaga kirishadi. Absorbent sifatida etinolaminlar (mono-, di-, tri-), ishqoriy metallarni karbonatlari, temir gidrooksidi va boshqalar ishlatiladi. Fizikaviy usulda esa suv, organik erituvchilar - no-elekrolitlar ( $\text{N}$ -metilpirrolidon, sulfolan, metanol va boshqalar) ishlatiladi.

Monoetanolami, bilan  $\text{N}_2\text{S}$  va  $\text{SO}_2$  larni reakstiyalari:






Bu erda R-HOCH<sub>2</sub>CH<sub>2</sub>-

Monoetanolaminning eritmasi 10 dan 30 % gacha ko'pincha 15-20 % mass. holatida ishlatiladi. Temperaturani yuqoriga ko'tarilsa erituvchimiz o'z holiga keladi va yana ishlatiladi.

Ishqoriy metallar (kaliy yoki natriy)ning karbonat tuzlarini eritmasini rN9-11 ga tengdir. Ular ishqoriy xususiyatga ega. Shu sababli ular kislota xossasiga ega bo'lган N<sub>2</sub>S va SO<sub>2</sub> gazlarini absorbstiya qilish imkoniyatiga egadir.



Hosil bo'lган NaHCO<sub>3</sub> ni eritmasini isitilsa yana Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> eritmasi hosil bo'lib, ishlab chiqarishga qaytarib beriladi.

### **1.3 Benzin komponentlari xossasi.**

Benzin — uglevodorodlarning ko'pchilikka tanish aralashmasi. Ammo uning xoosalari juda yaxshi o'r ganilmagan. Bu holat, ya'ni raqobatchilar tomonidan ko'rsatilayotgan tazyiq ta'siri ishlab chiqaruvchilarni foydalanish uchun o'ta yaroqli bo'lган mahsulotlarni tayyorlashga majbur qiladi. Agar mahsulot to'liq sifatli bo'lsa, xaridorlar uning yaroqliligi sabablari bilan qiziqib xam o'tirmaydilar.

Bu bobda mana shunga tegishli bir necha xususiyatlar bilan tanishib chiqamiz:

1. Bezinni kompaundirlash (yaroqli xolga keltirish) jarayonida alhamiyatga ega bo'lган ikkita nisbat o'zgaruvchan kattalik: to'yingan bug' bosimi va oktan soni bor.

Tetraetil qurg'oshin kushimchasining benzinga ta'siri.

Benzinni aralashtirish usuli.

Neftni qayta ishlash jarayonida benzinni kompaundirlashga bo'lган talab.

Agar, sizning avtomobil dvigatelining ishlashi xaqida tushunchangiz bo'lmasa, bu bob sizga eng boshidanoq tutunarsiz bo'lish ehtimoli bor. Shuning uchun ham dastlab, mavzuga oid tushuntirish va ko'rgazmalar berilgan. Siz ularni tushunib olishga xarakat qiling.

Ichki yonuv dvigateli (IYOD). Benzin dvigatelining assosiy qismlari benzobak, benzonasos, karbyurator, filtr, porshen va yondirish svechasiidan iborat. Yondirish svechasi bo'limgan dvigatellar dizelli deb ataladi, bular bilan keyingi bobda tanishamiz.

Siz benzobakni yoqilg'i quyish shaxobchasida to'ldirasiz. So'ngra, siz motorni yurgizasiz, benzonasos bakdan yoqilg'ini so'rib oladi va uni karbyuratorga uzatadi. Karbyurator benzinni bug'lantiradi, havo bilan aralashtirib uni silindrga jo'natadi. Keyinchalik 11.1-rasmida tasvirlangan holatlar ketma-ketligi sodir bo'ladi.



### To'rt kontaktli ichki yonuv dvigatelinini ishlashi.

Porshen pastga tomon xarakatlanganda, havo bilan aralashgan benzin silindrga so'rilib boradi va silindr xajmi maksimal qiymatgacha ortib bo-radi. Kirituvchi klapan yopiladi va shunda porshen yuqoriga ko'tarila boshlaydi, bu bilan yoqilg'ini siqa boradi. Porshen o'z harakatining yuqori nuqtasiga etganida yondirish svechasi kuchli shu'lalanadi va benzin alanga oladi. Benzin tez yonadi, bu gazlarning kuchli kengayishiga va porshenga nisbatan bosimning ortishiga olib keladi. Shu sababli, porshen majburiy ravishda silindr bo'ylab harakatlana boshlaydi va energiya porshennenning ish yo'li deb ataluvchi bo'g'imli val (kolenchatiy val)ga uzatiladi. Porshen harakatining pastki nuqtasida silindrning yuqori nuqtasidagi chiqaruvchi

klapan ochiladi va porshenning yuqoriga harakati vaqtida yongan yonilg'i chiqarib tashlanadi. Yuqorigi xaraka nuqtasida kirituvchi klapan yana ochiladi va butun jarayon qaytadan takrorlanadi. Siz, har bir sikl davrida porshenning ikki martadan silindr bo'ylab yuqoriga va pastga tomoi xarakatlanishiga e'tibor bering.

### **To'yingan bug' bosimi.**

IYOD (DVS)ish printsipining asosiy bosqichi benzinning alangalanishidir. Dvigatel muammosiz qiziganda, undagi issilik benzinning par (bug') holatida 100 foiz silindrga o'tishini ta'milaydi. Lekin dvigatel sovuqda endigina ishlay boshlaganda, holat ancha og'irlashadi.

Sovuq dvigateli ishga tushirishda benzin tez alangalnuvchi va tez bug'lanadigan, ya'ni uchuvchan uglevodorodlarni saqlashi kerak buladi. Uchuvchanlik o'lchovi bu to'yingan bug' bosimidir.

To'yingan bug' bosimi — suyuqlik bug'lanmasligi uchun zarur bo'lgan sirtqi qavat bosimi o'lchovi. Propanga o'xhash engil qaynaydigan va tez bug'lanuvchan birikmalar bug' bosimlari yuqori buladi. Nisbatan qiyin qaynaydigan uglevodorod, masalan, gazoyl to'yingan bug' bosimining nol bo'lish-ligi bilan tariflanadi, chunki xona xaroratida u juda sust bug'lanadi. Agar, siz, bir daqiqa o'ylab ko'rsangiz  $15^0\text{S}$  ( $288^\circ\text{K}$ ) da o'lchanadigan bug' bosimi xaroratga bog'liqligining guvohi bo'lasiz.

**Dvigateling ish sharoiti.** Endi karbyuratorlar muammosiga qaytaylik. Benzinning tuyingan bug' bosimi uchun kamida ikki shart bajarilishi kerak. Dvigateli sovuq holatda ishga tushirishda alangalanuvchi aralashmalar hosil bo'lishi uchun etarli miqdorda, taxmiman kamida 10 foiz benzin bug'latilishi lozim. Agar alanganish sodir bo'lsa, unda benzining qolgan qismi, ya'ni bug'lanib ulgurmagan qismi ham yonib ketishi mumkin. Ikkinci shart ish rejimiga taalluqli bo'lib, qizig'i dvigatel ishlayogganda yoki qizigan dvigateli yana qaytadan ishga tushirish shartligiga tegishlidir. Bu holatda benzin bug'i juda katta tezlik bilan tarqalmasligi kerak aks xolda silindrga kelishda benzinni xavo bilan aralashtirish mumkin bo'lmay qoladi.

Neftni kayta ishlovchilar benzinni bu shartlarini bajarishlari to'yingan bug' bosimi (TBB) bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Bundan tashqari to'yingan bug'

bosimining benzinlar uchun mutlaq kursatkichlari har xil va yil fasliga qarab turlicha bo'lishi kerak. Ayni qish vaqtida sovuq holda ishga tushirish uchun TBB 0,91 atm. bo'lган bnnzin kerak bo'ladi. Issiq avgust oyi kunlarida benzinning TBB 0,60 atm. dan yuqori bo'lsa, mashinalarni yurgizib bo'lmaydi.

**Bug' tiqini (probka).** Yana bir hodisani qayd etish lozim, ya'ni to'ningan bug'ning mumkin bulgan bosimi — bu bug' tiqinidir. Muammo dengiz sathiga nisbatan juda baland joy va yuqori haroratga bog'liq holda paydo bo'ladi. Katta balandlikda atmosfera bosimi kichik, yuqori TBB ga ega bo'lган benzin sistemaning istalgan qismida bug'lana boshlashi mumkin. Benzonasosning ish vaqtidagi konstruktsiyasi faqat suyuqlik bilan ishlashga moslashgan. Bunday paytda esa u suyuqlik va bug' aralashmasini haydashga majbur bo'ladi. Natijada karbyuratorga kelayotgan yoqilg'i kamlik tiladi va natijada dvigatel to'xtab qoladi. Benzining xarorati pasaymaguncha bu bir necha soat davom etishi mumkin.

Bu tiqinlarga yo'liqmaslik uchun haroratning mavsumiy o'zgarishi va atmogfera bosimini hisobga olgan holda, atrof-muhit sharoitiga mos ravishda TBB tanlanadi.

**Bug' bosimini xisobga olib kompaundirlash.** Neftni qayta ishlovchilar yuqoridagilarni hisobga olishi uchun nima qilishlari kerak? Benzinga ara-lashtirish uchun qo'llanadigan komponentlar ro'yxatiga nazar solinsa (quyidagi jadvalga qarang), so'ngi ikkita shartdan tashqari barchasiga javob o'z-o'zidan kelib chiqadi: bug' bosimini oshirish uchun butanlardan qo'shish lozim.

Agar, siz, benzin komponentlarini aralashtirshning sanoat sxemasini ishlab chiqishga harakat qilganingizda edi, bug' bosimini boshqaruvchi bitta butanning komponent sifatida etarli ekanligi xayolingizga xam kelmasdi. Lekin haqiqatda ham aynan shunday. Neftni kayta ishlash zavodida butan turli jarayoplarda qo'shimcha maxsulot sifatida hosil bo'ladi. Bunday tashqari uni tabiiy gazdan ham ajratib olinadi. Shunday qilib, bu ikki manba benzinni kampoundirlash, yani yaroqli qilish uchun etarli miqdorda butanni ishlab chiqarishga ta'min-ab beradi.

Zarur bo'lган to'yingan bug' bosimiga erishishda kerak bo'ladian butan miqdorini aiiqlash uchun bizga o'rtacha qiymatli algebraik hisob qilishimizga

to'g'ri keladi. To'yingan bug' bosimi komponentlar hajmiy qismlariga mutanosib (proportsional) deb bo'lmaydi, lekin bunday hisob bizning maqsadimiz uchun etarlicha aniqlik beradi. Siz 0,7 atm. ga teng bo'lgan TBB va beshta komponentdan iborat aralashma kerak deb tasavvur eting. Bu aralashmaga qancha n-butan qo'shish kerakligini hisoblab chiqishimiz kerak.

Komponenpt	Hajmiy barrel	TBB	Hajmi X
To'g'ridan to'g'ri haydalgan benzin	4000	1,0	4000
Reformat	6000	2,8	16800
Gidrokrekkingning engil maxsulotlari	1000	4,6	4600
Krekking-benzini	8000	4,4	35200
Jami	19000	—	60600
n-butan	X	52	52x

TBB 0,7 atm. ga teng bo'lgan kattalikka erishish uchun quyidagilarni qo'shish kerak:

$$0,7 (19000+x) = 60600 + 52x$$

$$13300 + 0,7x = 60600 + 52x$$

$$-52x + 0,7x = -47300$$

$$x = 922 \text{ barrel n-butan.}$$

Olingan beizinning umumiyl miqdori:

$$13300 + 922 = 14222 \text{ barrel.}$$

Shunday qilib, hisob ishlari anchayin sodda, ammo ba'zi bir holatlarni eslab o'tish joiz. TBB ning qishda talab etiladigan qiymati yozdagiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi, shuning uchun benzinning miqdori ham ko'p bo'ladi. Darhaqiqat, TBB ning qiymati qancha katta bo'lsa, shuncha ko'p n-butan qo'shish mumkin va natijada olinadigan benzin hajmi ham ko'p bo'ladi.


Afsuski, ko'pgina savdo bozorlarida qishda benzinga bo'lgan talab yozdagiga nisbatan kamroq bo'ladi. Shunga qaramay, benzinni ishlab chiqarish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar bunday paytda dizel yoqilg'isi ishlab chiqarishga qaratiladi.

**n-Butan va izobutanni solishtirish.** Nima uchun benzin bug'i bosimini oshirishda izobutan emas, balki aynan n-butandan foydalaniladi. Birinchidan, izobutan bo'lgan holatdaggiga nisbatan n-butai TBB ning qiymati 1,33 atm. kichik bo'ladi shunning uchun xam ko'p miqdorda n-butan qo'shish imkoniyati paydo bo'ladi. Butanni benzingga qancha ko'p qo'shhsa, shuncha yaxshi bo'ladi. Ikkinchidan izobuganni qullashning boshqa sohalari bor, masalan, alkillash. Bu jarayonni ta'minlash uchun ba'zan izobutan etarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham n-butanning kerakli miqdori izomerlash uskunasida izobutanga aylantiriladi (XV bobga qarang). Uchinchidan, odatda n-butanning bozor narxi izobutannikidan bir muncha past bo'ladi. Qiziqarli izoh sifatida avtmobil benzabakining qanday qilib to'ldirilishini eslang. Amalda, benzobak bo'g'zi atrofida to'lqinsimon bug'larni kuzatish mumkin. Bu benzindan uchib chiqayotgan butandir. Agar Siz kuzatgan bo'lsashiz qishda bunday bug' yozdagiga nisbatan ko'proq bo'ladi. Bunga sabab qishda ishlatiladigan benzinning TBB yuqori bo'ladi.

### Venzin tarkibidagi oktan soni.


Benzinni sotib oluvchi har bir odam yuqori oktan soniga ega bo'lsan benzin yaxshi hisoblanib qimmatroq sotlishini biladi. Ko'pchilik bunday benzinning yaxshiligini biladi, lekin nima uchun uning qimmat bo'lishi to'g'risida o'ylab ko'rmaydi. Shu bobda biz buning sababini tushunib olamiz. Oktan soni dvigatelda benzin detonatsiya qilinishini ko'rsatadi. Bunday aniqlash yana bir tupgunchaga — detonatsiyaga izox, berishimizni talab etadi.

**Detonatsiya.** Shu erda dvigatelning ish sikli tasvirlangan 11,1-rasmga murojaat etish foydadan xoli bo'lmaydi. Benzin va havo bug'lari aralashmasi silindrga tushganida porshen yuqoriga harakatlanib uni siqadi. Bug'lar siqilganida ular qizib ketadi. (Velosiped shinasiga nasos yordamida dam bernlganida, nasosning kuyi qismi qizib ketadi). Xuddi shu xolat dvigatel silindrining qizishiga sabab bo'ladi. Agar benzin va havo bug'lari aralashmasi qattiq siqilsa, u o'ta qizib ketadi va yondirish svechasi yordamisiz o'z-o'zidan yonib ketadi.



## V1/V2 ning nisbati (siqilish darajasi).

### Benzin oktan sonini aniqlash grafigi.



Agar alangalanish muddatidan oldin sodir bo'lsa porshen o'zining yuqorigi nuqtasiga etmasdan orqaga qaytib dvigatel burama valining harakatiga to'sqinlik qiladi, ya'ni detonatsiya sodir bo'ladi. Detonatsiya, odatda taqillab silkinish va dvigatel guvillashi bilan xarakatlanadi. Detonatsiya xosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki u motorning xarakatidagi kuchiga qarshi ishlaydi, shuningdek, uning mexanik qismlariga salbiy ta'sir etadi. Dvigatellar dastlabki ish jarayonida benzinning tarkibidagi komponentlar o'zlarini turlicha tutadi. Komponentning asosiy tavfsifi uning siqilish darajasidir. 11.2-rasmida tasvirlanganidek **siqilish darjasasi** deb porshenning quyi nuqtasidagi silindr hajmining porshenning yuqori nuq-tasidagi hajmi nisbatiga aytildi. Benzinning oktan sonini aniqlashda uning siqilish darjasasi yirkligi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'z-o'zidan alangalanish porshen harakatining yuqori nuqtasida sodir bo'ladi. Siqilish darjasasi benzin oktan soniga bog'liq. Oktan soni 100 bo'lgan benzin uchun shartli ravishda izooktan (2,2,4-trimetilpentan) $S_8N_{18}$  qabul qilingan. Kuchsiz siqilishda ham

detonatsiyalaydigan n-geptan S<sub>7</sub>N<sub>16</sub>) oktan soni "0" bo'lgan benzin uchun qabul qilingan. Ko'rgazma (stend) dvigatelidagi sinovdan foydalanib ben-zinning har bir komponenti uchun izooktan va n-geptan aralashmasi tarkibini belgilash mumkii. Aynan bir xil siqilish darajasida detonatsiyalovchi izooktanning aralashmadagi faol miqdori oktan soni (OS) hisoblanadi.

Detonatsiya uchun sinash. Sinovlar uslubini ko'rib chiqish foydadan holi bo'lmaydi. Buning uchun harakatlanuvchi qopqohi bo'lgan silindrli ko'rgazma (stend) dvigatelidan foydalaniladi. Silindrning harakatlanuvchi qopqog'ini pastga tushirish va yuqoriga ko'garish bilan siqilish darjasasi o'zgartiriladi. Benzin (sinalayotgan) silindrga uning qopqog'i pastga tushirilganda uzatiladi. Shunda ba'zi nuqtalarda detonatsiya sodir bo'ladi, buni silindrda tovushdan yoki detonometr yordamida akiqlash mumkin. Izooktan va p-geptandan ikki xil aralashma tayyorланади. Asbob bilan ishlashda to'plangan tajribaga ko'ra, uning yordamida xozirgi sinalgan komponenti o'rniga biri kichik siqilish dara-jasida, ikkinchisi katta siqilish darajasida detonatsiyalaydigan ikkita aralashmani tanlash mumkin. Bu aralashmalar uchun oktan soni aniq belgilangan (bu oktanning foiz miqdori). Xar bir aralashma uchun yuqoridagi sinovlar o'tkaziladi va eng yuqori siqilish darjasasi belgilanadi. 11.3-rasmida ko'rsatilgandek, uchta ma'lum nuqta bo'yicha grafik tuzilib, benzin komponenti uchun oktan sonini aniqlash mumkin.

Masalan, stendli dvigatelda benzin komponenti 8:1 siqilish darajasida detonatsiyalanadi. Ikkita model aralashma tayyorланади — birida 88% izoktan (OS 88), ikkinchisi esa 96% (OS 96) izooktan bo'ladi. Stendli dvigatelda ular 7,2:1 va 8,4:1 siqilish darajasida detonatsiyalanadi. Grafikka ko'ra noma'lum benzin oktan soni 93,3 ekanligi aniqlanadi.

**Oktan soniga qo'yiladigan talablar.** Endi siz, oktan soni nimani ko'rsatishi xaqida tushunchaga egasiz. Nima uchui u muhim? Dvigatel konstruktsiyasi yoqilg'ining asosan u yoki 6u holatiga hisoblangan bo'ladi. Yoqilg'ining dvigateldagi siqilish darjasasi uning quvvatini belgilaydi. Siqilish da-rajasasi qancha kuchli bo'lsa, dvigatelning ish takti (holati) shuncha davomli va borgan sari kuchli bo'lib boradi. Shunday qilib, har xil o'lchamli mashinalarda turli konstruktsiyadagi

dvigatellar o'mnatiqadi. Turli konstruktsiyadagi dvigatellarga oktan soni har xil bo'lgan benzinlar ishlataladi. Qisqasi, sizning mashinangiz uchun siqilish darajasini o'zgartirish uchun, siz silindr porshenini pastga va yuqoriga ko'tarishingiz shart emas. Buning o'rniga siz aynan mashinangizga to'g'ri keladigan benznnni sotib olishingiz mumkin.

**Oktan soni turlari.** Endi oktan sonlarining turlari va ularning qo'llanilishi bilan tanishib chiqamiz. Birinchidan, oktan sonini aniqlash bo'yicha sinovlar ikki rejimda olib boriladi. Oktan soni ilmiy tekshirish (izlanish) usuli (IOS) bo'yicha tekshirish qulay sharoitda mashinani yurishini modellashtiradi. Oktan sonini motor usuli bo'yicha tekshirish esa (MOS) va nisbatan qattiq sharoitda o'tkaziladi. Bu katta tezlikda harakatini modellashtirish yoki ma'lum yuklanishda sodir bo'ladi. MOS va IOS lar har xil sharoitda dvigateli ishlashi xaqida tuliq tushuncha hosil qiladi. IOS+MOS\2

Bu kattalik xech bir aniq ma'noga ega emas. U faqat munozaraga chek qo'yadi.

Oktan sonlariga tegishli ikkinchi holat - bu ularning o'zini tutishidir. Ikkita benzin komponenti aralashtirilganda IOS va MOS additivlik qoidasiga bo'ysunmaydi. Boshqacha qilib aytganda IOS va MOS aralashmasi komponentlari hajmining o'rtacha kattaligi ularning aloxida olingan xajmi kattaligiga teng emas. Xayriyatki, har bir komponent uchun additivlik qoidasiga amal qiluvchi oktan sonining siljish kattaligi mavjud. Oktan sonining siljishi ma'lum darajada xaqiqiy oktan soii (dvigatelda o'tkazilgan sinovlar natijasida aniqlangan) bilan bog'langan va u tajriba yo'li bilan tasdiqlangan. Benzinning IOS va MOS komponentlari xaqida gapirilganda siljish soni oktan soni kabi xisobga olinishi mumkin. Shu daqiqadan eslatadigan barcha oktan sonlari. aynan, oktan sonlarining siljishi deb belgilanadi.

**Aralashmaning belgilangan oktan sonini olish.** Yuqorida qayd etilganlarni o'zida jam etgan bir misolni ko'rib chiqaylik. Aralashma bug' bosimini oshirishda bunda butandan foydalaniladi.

Bu aralashmaning IOS va MOS ini hisoblaymiz.

	Hajmi (barrel)	MOS	IOS
Tog'ridan-to'g'ri haydaluvchi benzin	4000	61,6	66,4
Reformat	6000	84,4	94,0
Gidrokrekingning yengil maxsuloti	1000	73,7	75,5
Kreking-benzin	8000	76,8	92,3
n- Butan	3081	92,0	93,0
Jami	22081		

22081 barrel uchun o'rtacha oktan soni qiymati: MOS 78,1 va IOS 87,4.

Endi talab etilayotgan MOS = 80,0 va IOS = 89,0 ni olish uchun qancha alkilat qo'shilishi kerakligini hisoblaymiz. Alkilatning oktan soni 95,9 (MOS) va 97,3 (IOS).

	Hajmi (barrel)	MOS	IOS
Benzin	22081	78,1	87,4
Alkilat	u	95,9	97,3
Normativ (minimum)		80,0	89,0

22081 barrel benzin MOS bo'yicha normativga muvofiq bo'lishi uchun quyidagi alkilat miqdori kerak bo'ladi:

$$22081 \cdot 78,1 + 95,9 \cdot y = 80,0 (22081 + y) \quad y = 2638 \text{ barrel.}$$

IOS bo'yicha normativga ko'ra qancha alkilat kerakligini ham xuddi shu tartibda hisoblab chiqamiz:

$$22081 \cdot 87,4 + 97,3 \cdot y = 89,0 (22081 + y) \quad y = 4257 \text{ barrel.}$$

Demak, IOS bo'yicha normativga ko'ra katta miqdorda alkilat talab etilar ekan. Aynan shu miqdor haqiqiy talabni aniqlab beradi. Chunki topiladigan har ikkala oktan soni minimal darajada bo'lshi ham mumkin.

Bu misol kichik muammolarning paydo bo'lislini namoyish etadi. Darxaqiqat, agar biz 12241 barrel alkilatni qo'shsak, olingan mahsulot TBB bo'yicha shartlarga

muvofiq kelmay qoladi. Aslida ikkita noma'lumli tenglamadan foydalanib, alkilatlar miqdori va butan miqdorini bir vaqtning o'zida aniqlash mumkin.

#### **1.4 Neftni qayta ishlash kimyoviy texnologiyasi.**

Ma'lumki, neft neft – kimyoviy sintez uchun asosiy xom ashyodir. “Yoqilg'i va uglerodli moddalar kimyoviy texnologiyasi” fani asosan neft va gazni qayta ishlashda hosil bo'lувchi uglevodorod qismlarini, kimyoviy tarkibi, xossalari va ularni organik sintez uchun ishlatilish sharoitlarini o'rgatadi.

Neft – yoqilg'i, moylar va boshqa mahsulotlar olishni yagona manbaidir.

Neft va tabiiy gazni qazib olish va qayta ishlashni o'sishi xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan sun'iy tola, o'g'itlar, polimer moddalar, kauchuk va boshqa mahsulotlar bilan to'la ta'minlashga erishishga olib bormoqda.

U moysimon, to'q qo'ng'ir rangli suyuqlikdir. Uning rangi tarkibidagi smolasimon moddalarni miqdoriga, tuzilishiga bog'liqdir.

Neft tarkibida uglerod – 83 – 87%, vodorod – 11 – 15%ni tashkil etadi. Qo'shimcha birikmalarda kislород, azot va oltingugurt bo'lishi mumkin. Neft xom ashyosi va dastlabki haydashda parafin, naften va aromatik uglevodorodlar yoki ularning aralashmasi uchraydi.

Neft er qobig'ini 500 – 5000 m chuqurligida joylashgan bo'lib, asosiy qismi 800 – 2500 m.dan nasoslar yordamida qazib olinadi. Neft qudug'i qazilganda birinchi navbatda neft xom ashyosi unda erigan yoki birgalikda mavjud bo'lgan gazlarning bosimi ta'sirida er yuzasiga fontan hamda chiqadi. Keyinchalik bosim pasayadi va neft kompressor orqali tortib olinadi. Qazib olinayotgan 1t neft o'zi bilan 50 – 100m<sup>3</sup> gaz, 200 – 300kg suv, 10 – 15kg mineral tuz va chiqindilarni birga olib chiqadi. Quduqlardan chiqqan (20 – 30 ta yoki ba'zan 80 tagacha quduqdan) neft bir joyga yig'ilib, hosil qilingan aralashma tarkibidagi neft miqdori aniqlanadi. Neft bilan chiqqan gaz maxsus qurilmalarda ajratib olinadi. Bu holda neftdagi suv 0,2 – 0,8% gacha, tuz esa 1t neftda 0,8 – 1 kg gacha kamayadi. Suv va tuz miqdori kamaytirilgan neft qayta ishlash zavodlariga yuboriladi. Turli konlardan farq qiladi. Yuqorida aytilganidek neftda turli molekulyar og'irlikdagi uglevodorodlar mavjud.

Neft tarkibida uglerod 83-87 %, vodorod 11-15 % ni tashkil etadi. Qo'shimcha birikmalarda kislorod, azot va oltingugurt bo'lishi mumkin. Neft xom ashyo va dastlabki haydashda parafin, naften va aromatik uglevodorodlar yoki ularning aralashmasi uchraydi.

Neft yopishqokligi  $5 \text{ } 100 \text{ sp}$  (santipuaz) ( $10^{-6} \text{ m}^2/\text{sek}$ ), ayrim hollarda undan yuqori bo'ladi. Zichligi suvni zichligidan kichikdir.

Neft bir xil tarkibda bo'lувчи suyuqlik emas. U turli molekulyar og'irlilikka, tuzilishga ega uglevodorodlarni katta guruhini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga neft oltingugurt, azot, kislorod saqlovchi smolasimon moddalardan tashkil topgan. Neft  $40\text{-}500^\circ\text{S}$  oraliqda qaynay boshlaydi. Haydashni eng oxirgi qoldig'i – gudron (quyqa). Uning issiqlik uzatish qobiliyati  $4,2\text{-}10^4$  joul/kg bo'lib, haydalganda o'zidan kul (zol) qoldirmaydi.

Neftni qazib olish konlarni burg'ulash asosida amalga oshiriladi. Neft er qaridan gazning bosimi ostida o'z-o'zicha yoki nasoslar yordamida tortib olinadi.

Hozirgi ilm-fan tomonidan neftni organik moddalar majmuasi ekanligi isbot qilindi. U o'simlik va hayvonot dunyosini qoldiqlarini ko'p yillar davomida kimyoviy o'zgarishga uchrashi natijasida hosil bo'ladi. Bu o'zgarish juda sekinlik bilan boradi. Neftni hosil bo'lishi tashqi muhit ta'siriga qarab ko'p million yil davom etadi. Neftni hosil bo'lishi 350-400 mln. yilga teng.

Neft konlari jahon bo'yicha er yuzasida bir tekis tarqalmagan.

Neftni qismli (frakstion) tarkibi. Neft – bu qattiq va smolasimon organik moddalarning uglevodorodlarning erigan suyuq holdagi murakkab aralashmasidir. Bundan tashqari neft bilan birga chiquvchi gaz fazasidagi uglevodorodlar ham unda erigan bo'ladi.


Murakkab aralashmalarni alohida-alohida bo'lgan oddiy qismlarga ajratish – frakstiyalash deb ataladi. Frakstiyalash komponentlarni fizikaviy, kimyoviy va boshqa xossalariiga asoslanib amalga oshiriladi. Ajratish usullari quyidagicha:

- fizikaviy stabillash (degazastiya);

- haydash va rektifikastiya va boshqalar;
- adsorbsiya;
- ekstrakstiya;
- xromatografik usul;
- karbid ( $\text{SaS}_2$ ) bilan aralashtirish (kimyoviy usul, reagentli usul).

Bu usullar bilan tarkibi va xossasi jihatidan farq qiluvchi (dastlabkisiga nisbatan) neftning frakstiyalarini olish mumkin. Ayrim hollarda yuqoridagi usullar qo'shaloq holda olib boriladi. Masalan, adsorbsiya + ekstrakstiya, ekstrakstiya + haydash va hokazo. Frakstiyalash uchun eng ko'p tarqalgan haydash va rektifikastiyalash usullari hozir ko'p ishlatiladi. Bu sababli barcha neftni qayta ishslash korxonalari shu usullarga asoslangan.

Haydash bo'yicha temperatura ortishi bilan qaynash temperaturasiga qarab moddalar asta-sekin haydaladi. Natijada quyidagi frakstiyalar olinadi:



Keyin bu frakstiyalar alohida – alohida haydalib tiniq va toza holda mahsulotlar olinadi.

Masalan,

Benzin frakstiyasidan

Aviastiya, avtomobil  
yoqilg'ilar;

Erituvchilar, kerosin,  
reaktiv aviastiya uchun  
yoqilg'i, dizel yoqilg'ilar  
olinadi.

Frakstiyalarni chiqishi, tarkibi va boshqa xossalari neftni tarkibiga bog'liq (qaerdan qazib olinishiga). Engil neftlar ham (ya'ni faqat benzin, kerosin frakstiyasi chiqadigan) uchraydi.  $300^{\circ}\text{S}$  gacha qaynaydigan moddalar neft tarkibida 30 – 50% ni tashkil etadi.

Neftni elementli va kimyoviy tarkibi. Neft asosan S va N elementidan tashkil topgan. Neftda uglerod 83,5 – 87% gacha bo'ladi, vodorod esa 11,5 – 14% gacha bo'ladi. Bundan tashqari neftda S, O, N (2 – 3%) qo'shimchalari bor.

S – birikmalari miqdori O'zbekiston neftida 3,2 – 6,3% gacha (Uch-Qizil) boradi.

Neftda juda kam miqdorda quyidagi metallar ham uchraydi: V, W, Re, Cr, Ti, Mg, Co, K, Na, Ca, P va Si. Ayrim holda Ge (0,15 – 0,19 g/t) uchraydi.

Neftni asosiy qismi - uglevodorodlardir.

>  $250\text{-}300^{\circ}\text{S}$  haydaladigan ugdevodorodlar oddiy tuzilishga ega.

$\text{S}_n\text{N}_{2n-2}$  - metan yoki parafin uglevodorodlar (alkanlar).

$\text{S}_n\text{N}_{2n}$  - stikloparafinlar, naftenlar.

$\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$  - bistiklik polimetilenli, distikloparafinlar.

$\text{S}_n\text{N}_{2n-4}$  - tristiklik polimetilenli, distikloparafinlar.

$\text{S}_n\text{N}_{2n-6}$  - monostiklik aromatik uglevodorodlar, benzol uglevodorodlari, arenlar.

$S_nN_{2n-8}$  - bistiklik naften-benzol aromatik uglevodorodlari.

$C_nH_{2n-12}$  - бистиклик ароматик углеводороды.

Benzin frakstiyasida asosan: alkanlar, stiklanlar va aromatik uglevodorodlar bor.


Kerosin va gazoyl frakstiyasida → bi va tristiklik uglevodorodlar bor.

Neftni haydashda 350°S dan yuqorida chiquvchi frakstiya tarkibi kam o'rganilgan. Bunda molekulyar og'irligi 300-1000 bo'lgan moddalar haydaladi. Bunga asosan kiradi:

- I. Yuqori molekulalı parafin uglevodorodlar.
  - II. Mono-, bi-, tristiklik stikloparafinlar.
  - III. Mono-, bi-, tristiklik aromatik uglevodorodlar.
  - IV. Aralash uglevodorodlar.
  - V. Polistiklik birikmalar.


**2.** Neftni O<sub>2</sub>-li birikmalari. Neft tarkibida O<sub>2</sub> ning miqdori juda katta bo'lmasdan 0,1 – 1% gacha bo'ladi. Ammo u yuqori ko'p miqdorda smolasi bor neftlarda O<sub>2</sub> – 2% gacha borishi mumkin. Hisoblashlarga ko'ra O<sub>2</sub> ning 90% neftni smolasi tarkibiga kiruvchi birikmalarda bo'ladi. Qolgan qismi kislota va fenollar hisobidan bo'ladi.

Neftlarni o'zida O<sub>2</sub> saqllovchi birikmalari asosan karbon kislotalardir. Ularni umumiy formulasi S<sub>n</sub>N<sub>m</sub>SOON. Bunda S soni S<sub>8</sub>-S<sub>11</sub> gacha bo'lishi mumkin. Masalan, S<sub>n</sub>N<sub>2n+1</sub>SOON



Kislotalar besh va olti halqali birikma holida bo'lishi mumkin. Ularni  $S_nN_{2n-1}SOON$  yoki  $S_nN_{2n-2}O_2$  formula bilan belgilanib naften

uglevodorodlari deyiladi. Ayrim neftlardan S<sub>13</sub>-S<sub>18</sub> gacha uglerodi bo'lgan bi- va tristiklik kislotalar ham olingan. Bu asosan neft moyi frakstiyasidan olinadi. Bu xil kislotalar suyuq yoki qattiq holatda bo'lishi mumkin. Zichligi 1 ga yaqin. Kimyoviy xossasiga ko'ra yog' karbon kislotalarga o'xshash, ya'ni NaOH bilan reakstiyaga kirishadi:




Bu holat neft frakstiyalaridan kislotalarni ajratib olishga imkon beradi. Bu xil tuzlar suvda yaxshi eriydi.

Neft kislotalarini ajratib olish uchun turli usullar qo'llaniladi: adsorbstiya, ekstrakstiya, cho'ktirish va hakazo.

Neftni O<sub>2</sub> li birikmasi bo'lgan naften kislotalari metall oksidi bilan ham tuz hosil qiladi. Suv va yuqori temperaturada ular metallar bilan tuz hosil qilib, metalldan tayyorlangan uskuna va qurilmalarni emirilishga (korroziyaga) sababchi bo'ladi.

Oson emiradi: Pb, Zn, Cu, kamroq - Fe, yanada kamroq - Al ni emiradi. Shu sababli neft mahsulotlarini tozalash vaqtida naften kislotalarini ajratib tashlashga katta e'tibor beriladi. Spirtlar bilan kislotalar efir beradi:



Neftlarda naften va uning yuqori molekulali kislotalari miqdori 2% gacha borligi aniqlangan.

Kislotalarni neft frakstiyalari bo'yicha taqsimlanishi ham turlicha.

Masalan: benzin, ligroin frakstiyalarida - yo'q;

kerosin - 2-3% gacha bo'ladi.

Neftni bu kislotalarini ishqorli tuzlari yuvuvchi moddalar olish uchun ishlataladi. Neftni ishqorli tozalash vaqtida hosil bo'ladigan qoldiq - milonaftni to'qimachilik sanoatida yuvuvchi modda sifatida ishlataladi.

Kerosin va dizel yoqilg'ilarini ishqorli tozalashda qoladigan qoldiq - naften kislotalarini natriyli tuzlarini 40% suvli eritmasi ham shunday maqsadda qo'llaniladi.



Kerosin frakstiyasini tozalashdan olinadigan texnik naften kislota (asidol)

turli maqsadda ishlatiladi. Masalan: shpalga shimdirish, kauchukni regenerastiyasi (qayta ishlovchi holatga olib kelish).

O<sub>2</sub> saqlovchi fenol va karbon kislotalar neft tarkibida umuman yo'q, bo'lsa ham 0,001% ulushni tashkil etadi.

O<sub>2</sub> birikmalarini eng ko'pi neft tarkibidagi yuqori molekulali uglevodorodlari bor qismi (smola qismi)ga to'g'ri keladi. Faqat 10% gacha neftni nordon organik birikmalari tarkibida, masalan, karbon kislotalari va fenolda uchraydi. Fenol birikmalarida 0,1% dan oshmaydi.

Yog' karbon kislotalari S<sub>n</sub>N<sub>2n</sub>SOON neftda 0,01% gacha bo'ladi. C<sub>n</sub>H<sub>2n-1</sub>COOH, S<sub>n</sub>N<sub>2n-2</sub>O<sub>2</sub> kabi karbon yoki naften kislotalarini 10 dan ortiq vakili neftdan ajralib olingan va o'rganilgan.



Fizik xossalari jihatidan karbon kislotalari suyuqlik yoki kristall holda bo'ladilar, yog' kislotalari hidini beradi. Zichligi 1 ga yaqin. Kimyoviy xossalari bo'yicha yog' karbon kislotalariga o'xshash.

**Neftni S-li birikmalar** yaqin vaqtgacha qazib olinadigan neftlar S birikmalar kam saqlovchi bo'lib hisoblanardi. Lekin hoznrgi kunda olinayotgan neftning 2/3 qismi S birikmalarini saqlovchidir. Chet eldag'i ahvol ham shunday.

S birikmalarini borligi bo'yicha neft 4 ga bo'linadi:

S - siz (S < 0,2%)

Kam S -li (S = 0,2-1%)

S - li (S = 1-3%)

Yuqori S - li (S > 3%)

Dunyoda barcha turdag'i S saqlovchi neftlar qazib olinadi.

S - saqlovchi neftlar termik parchalanishga chidamsiz. Shu sababli haydash vaqtida yoki termik kreking ( $500^{\circ}\text{S}$ ) da past temperaturada frakstiya tarkibida  $\text{H}_2\text{S}$  va merkaptanlar yig'iladi. S-li neftlarni guruhlashda  $\text{H}_2\text{S}$  soni bo'yicha ham belgilanadi. Bu son neftni  $300^{\circ}\text{S}$  da 1 soat davomida qizdirilganda ajralib chiqqan  $\text{H}_2\text{S}$  va merkaptanlar (R-SH) sonida (mg) 100g neft). Umuman neft tarkibida quyidagi S - birikmalar bo'ladi:

- merkaptanlar;
- alifatik sulfidlar;
- disulfidlar;
- tiofan va tiofen;
- polistiklik S -li birikmalar.

#### Merkaptan (yoki tiospirtlar) - R-SH (tiollar).

Metilmerkaptan -  $\text{CH}_3 - \text{SH} \rightarrow T_q = 5,9^{\circ}\text{C}$ , gaz.

Etilmerkaptan va undan yuqorisi -  $\text{C}_2\text{H}_5 - \text{SH} \rightarrow T_q = 35-140^{\circ}\text{C}$  suyuqlik.

Qo'lansa hidli, shu sabab xo'jalikda ishlatiladigan gaz tarkibiga odorant sifatida qo'shiladi (qaerdan gaz chiqayotganini bilish uchun).

$\text{C}_3\text{H}_7\text{-SH}$  – propilmerkaptan;


$\text{C}_4\text{H}_9\text{-SH}$  – butilmerkaptan;

$\text{C}_5\text{H}_{11}\text{-SH}$  - amilmerkaptan.


$300^{\circ}\text{S}$  gacha neft qaynatilganda merkaptaplardan alifatik sulfidlar hosil qiladi:




Amilmerkaptan



Kimyoviy xossasi jihatidan merkaptanlar spirlarga o'xshash. Oksid va ishqorlar bilan merkaptidlar hosil qiladi:



Kuchsiz oksidlovchilar ularni disulfidga, kuchlisi esa sulfokislotalarga aylantiradi:





Merkaptanlar zararli bo'lib, qurilmalarni korroziyalanishni va benzinni krekinglashda smola hosil bo'lishini tezlashtiradi.

Alifatik sulfidlar (tioefirlar) R-S-R' – suyuq holdagi qo'lansa hidli birikmalardir.




Bu birikmalar rangsiz distillyatlarda uchraydi. Masalan: benzin, kerosin, dizel yoqilg'ilarida 50-80% ni (umumiyligi S-li birikmalar sonidan) tashkil etishi mumkin. Xossalardan eng sezilarlisi ko'p birikmalar bilan, masalan:  $\text{Hg}_2\text{Cl}_2$ , HF,  $\text{SO}_2$  va boshqalar kompleks birikmalar beradi. Kuchli oksidlovchilar sulfidlarni sulfonlargacha oksidlaydi:





Ayrim neftlarda R-S-S'-R' disulfidlar ham topilgan.

Tiofan yoki stiklik sulfidlar 5 va 6 halqali bo'ladi:





Tiofan - suyuq bo'lib,  $121^{\circ}\text{S}$  da qaynaydi, o'tkir qo'lansa, hidli. Termik chidamli bo'lib, metallar bilan reakstiyaga kirishmaydi. 20 ga yaqin a'zolari olingan.

Tiofen - 1883 yilda toshko'mir smolasida aniqlangan:




Ular neftni yuqori temperaturada haydaladigan frakstiyalarida uchraydi ( $300-400^{\circ}\text{S}$  dan yuqori). Tiofenlar suyuqlik bo'lib, aromatik hidga ega. Fizikaviy va kimyoviy xossalari jihatidan aromatik uglerodorodlarga o'xshash.

Yuqori molekulyarli S - birikmalari ham uchraydi:




Ўзбекистон нефтида қуидагича S – бирикма учрайди:




Toza holdagi neftni N-li birikmalari neftda kam bo'lib, miqdori 0,3% dan oshmaydi.

N – birikmalarini miqdori esa 2-3% gacha bo'ladi. Azotning birikma-larini ko'p qismi asosan og'ir frakstiyalarda va qoldiq mahsulotlarda uchraydi. Azot birikmalarini neftdagi asosi – geterostiklik birikmalardir:



Piridin -  $T_q=115,26^\circ\text{S}$  da qaynaydi, erituvchi, hidli. Xinolin –  $T_q = 240^\circ\text{S}$ , hidli suyuqlik.


Neftdagi N-li birikmalar:



Bu birikmalar termik chidamli. Dizel yoqilg'ilar, mazutni uzoq vaqt saqlashda smola hosil qiladi. Agar  $\text{O}_2$  bo'lmasa tarkibida ishlatalishga xalaqit qilmaydi.

Neftlarda bundan tashqari  $\text{O}_2$  bilan birgalikda bo'lgan birikmalar -

amidlar guruhibiga kiruvchi moddalar ham bo'ladi:



Ar - aromatik radikal ( $\text{S}_6\text{N}_5$ ).

Neft tarkibidagi S, N, O, S, gohida N va Me ionlarini saqlovchi yuqori molekulalı organik moddalar smola-asfaltenli moddalar deyiladi.


**3.** Tarkibida yuqori molekulalı uglevodorodlar saqlovchi neft qismi (tarkibiga S, N, O, S, gohida N, Me) smola-asfalten deb ataladi. Ularni uchuvchanligi juda past, shu sababli neft qoldig'ida yig'iladi. Benzin distillyatiga tushmaydi. Bu moddalar neftni umumiyligi tarkibini 15% ni tashkil etadi. Ular yopishqoqligi yuqori, to'q, qo'ng'ir rangli. Spirt, benzol, xloroformda  $\text{SNS}_1_3$  eriydi. Zichligi 1 dan yuqori. Smolasimon moddalar termik va kimyoviy chidamsiz, shu sababli tez oson oksidlanadi, kondensatlanadi, qaynatilsa parchalanadi.

Ervchanligiga qarab bu xil moddalar quyidagicha bo'linadi:

- 1) Neytral smolalar, benzinda, pentanda, geksanda eriydi.
- 2) Asfaltenlar, issiq benzolda eriydi.
- 3) Karbenlar, qisman piridinda va  $(\text{CS}_2)$  eriydi.
